

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 155
2025 yil “29” 08



CHIZMACHLIK O‘QITISH
METODIKASI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi

Samarqand – 2025

an/mavzu kodi CHFO'MM305		O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 4	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi	60		60	120
2.	I. Fanning mazmuni <p>Fanni o'qitishdan maqsad – chizmachilik fanini o'qitish metodikasi pedagogika oliy ta'lim muassasalarining asosiy o'quv fanlaridan biri bo'lib, bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining kasbiy fazilatlarini shakllantirish jarayonini yakunlaydi, maktabda o'quvchilarga puxta bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Shuningdek, faol pedagogik va ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan yuksak grafik madaniyat va kasbiy mahoratga ega chizmachilik o'qituvchisini tarbiyalashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fanini o'qitishda o'quv materialini eng samarali, usul, vosita va shakllarda taqdim etishda talabalarning metodik dunyoqarashini kengaytirish orqali ularning uslubiy fikrlashini rivojlantirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilishga o'rgatish va ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llarini o'rgatish, tasviriyl san'at va chizmachilik fanlarini o'rganishga zamonaviy yondashuvlarga ega bo'lgan malakali o'qituvchini hamda pedagogik muammolarni optimal va ijodiy hal qila oladigan jamiyatning faol a'zosini tarbiyalash.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>I MODUL. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasining umumiy masalalari.</p> <p>1-mavzu. Kirish. Umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fani va uni fan sifatida o'qitishning maqsad va vazifalari. Umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik o'qitishning mazmuni, tamoyillari va metodlari. Dars mashg'ulotlarini rejalashtirish. O'qituvchining darsga tayyorlanishi.</p> <p>“Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fani”, uning tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik o'qitishning qisqacha tarixi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va professional ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishda politexnik, gumanitar, ijodiy, umummadaniy yo'nalishlarni amalga oshirishning metodik usullari.</p>				

Chizmachilikning tasviriyl san'at, texnologiya, matematika, geografiya va boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik o'qitishning maqsad va vazifalari. Maktab chizmachilik kursining tuzilishi va mazmuni. O'quv materialining o'quv yili, choraklar, bo'limlar va mavzular bo'yicha taqsimlanishi; nazariy ma'lumotlar, grafik va amaliy ishlar tizimi; o'quvchi egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar (sinflar bo'yicha).

Chizmachilik o'qitishdagi asosiy didaktik tamoyillar: politexnik yo'nalganlik, ta'limning ilmiyligi, tizimlilik va uzviylik, tushunarlik, onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, jamoaviy va individual ta'lim shakllaridan o'rinli foydalanish.

Chizmachilik o'qitish metodlari: hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza, kuzatish, modellashtirish, konstruksiyalash, darslik va ma'lumotnoma materiallari bilan ishlash va ulardan dars mashg'ulotlarida foydalanishning o'ziga xos tomonlari.

Tushuncha (termin)larning son va sifat muammosi. Chizmachilik terminologiyasi va o'qitishda to'g'ri tanlangan terminlardan foydalanish. Professional ta'limda chizmachilik o'qitishning o'ziga xos jihatlari.

Chizmachilik darsiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Chizmachilik darslarining turlari va tuzilishi. Chizmachilik darslarida o'quvchilarning ishlarini tashkil qilish shakllari. O'quv materialining xajmi, mazmuni va uni o'quv yillariga taqsimlash. Chizmachilik o'qitishda grafik topshiriqlarning ahamiyati. O'qituvchining darsga tayyorlanishi va unga qo'yiladigan talablar. Chizmachilik darsining reja-konspekti.

2-mavzu. Bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hisobga olish tizimi. Ko'rgazmali qo'llanmalar. Chizmachilik kabinetini jihozlash. Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini chuqurlashtirib o'rganish va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish.

Chizmachilik darslarida o'quvchilarda maxsus tushunchalar va grafik ko'nikmalarni shakllantirish. O'quvchilar tomonidan bajarilgan grafik ishlarni tekshirish va baholash.

O'quvchi grafik faoliyatining nazorat turlari. O'quvchilar faoliyatini baholash mezonlari. O'quvchilar grafik ishlarini tekshirishga qo'yiladigan asosiy talablar.

Bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hisobga olish tizimi, baholash tizimidan, dasturlashtirilgan kartochka-topshiriqlardan foydalanish.

O'quv jarayonida ko'rgazmali qo'llanmalarining ahamiyati. Ko'rgazmali qo'llanmalarining turlari. Chizmachilikdan ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlashga va taxt qilishga qo'yiladigan asosiy talablar. Ko'rgazmali qo'llanma eskizini tayyorlash.

Chizmachilik kabineti va uning jihozlari. Chizmachilik kabinetida jihozlarni joylashtirish tartiblari; kabinet intererini tashkil qilish (sanitariya normalari, xavfsizlik texnikasi, dizayn, ergonomika). O'qituvchi va o'quvchi ish o'rnini tashkil qilish.

Chizmachilikdan fakultativ mashg'ulotlar va to'garaklar, ularni tashkil qilish metodikasi. Chizmachilik o'qituvchisining o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha faoliyati. Tanlovlar, viktorinalar va "Chizmachilik" haftaliklarini tashkil qilish. Chizmachilikdan qiziqarli masalalar.

Umumta'lim maktablarda chizmachilik fanini chuqurlashtirib o'rganishning maqsad va vazifalari. Chizmachilik chuqur o'rganiladigan sinflarni tashkil qilish va undagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Chizmachilik chuqur o'rganiladigan sinf (maktab)larda tarbiyaviy ishlarning yo'lga qo'yilishi. Chizmachilik chuqur o'rganiladigan sinf (maktab)lardagi o'quv dasturlari. Ularda amaliy yo'nalishlar, ijodiy masalalar va olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishning aks etishi.

II MODUL.Chizmachilikning asosiy mavzularini o'rgatish metodikasi.

3- mavzu. Chizmachilik fani bo'limlarining asosiy mavzularini o'qitish metodikasi. O'quvchilarni chizmalarda kesimlar va qirqimlar bajarishga o'rgatish.

O'quvchilarni buyum (obyekt)larning grafik tasvirlash usullari va ularning fazoviy xarakteristikalari bilan tanishtirish metodikasi. O'quvchilarni chizmachilik fani va chizmalarni taxt qilishning asosiy qoidalari bilan tanishtirish. To'g'ri burchakli proyeksiyalar sistemasida proyeksiyalash usullari va chizmalarni qurish usullarini o'rgatish metodikasi. Asosiy geometrik yasashlarni o'rgatish metodikasi. Chizma standartlari haqida tushuncha. Chizmalarda o'lcham qo'yish. Asosiy geometrik yasashlar. To'g'ri burchakli proyeksiyalar sistemasidagi chizmalar.

"Kesimlar" va "Qirqimlar" mavzularini o'qitish metodikasi. Kesimlar. Qirqimlar. "Oddiy qirqimlar" mavzusi bo'yicha o'quvchilar bajarishi tavsiya etiladigan mashqlar. Oddiy qirqimlarni bajarishda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatolar.

4-mavzu. Mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish metodikasi. Sxemalar va qurilish chizmalarini o'qishni o'rgatish. Grafik va diagrammalarning amaliy qo'llanilishi.

Mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish haqida umumiy ma'lumotlar. Ajraluvchi va ajralmas birikmalar chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish. Yig'ish chizmalarini o'qishga va detallarga ajratishga o'rgatish. Yig'ish chizmalarini o'qishga o'rgatishda ko'rgazmali qurollar va ularni qo'llash metodikasi.

O'quvchilarni sxema turlari, ishlatilish sohalari va ularni tasvirlash (chizish)ning umumiy qoidalari bilan tanishtirish. Sxemalarni bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar. O'quvchilarni qurilish chizmalari va ularning mashinasozlik chizmalaridan farqli tomonlari bilan tanishtirish. Qurilish chizmalarini o'qish tartibi. Grafik va diagrammalar, ularning turmushda va o'quv jarayonida qo'llanilishi.Chiziqli grafik, ustunli va sektorli diagrammalarni bajarish metodikasi. Grafik va diagrammalarni mavzuli chizma va rasm bilan badiiy bezash usullari.

5- mavzu. Chizma bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar. Sinf doskasida bo'r bilan ishlash. Chizmachilik darslarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. «O'qituvchi omili» muammosi. Chizmachilik o'qituvchisi shaxsi. Chizmachilikdan ilmiy-tadqiqot ishlari metodologiyasi

O'quvchilarning grafik ishlarda yo'l qo'yiladigan tipik xatolar. Ularning turlarini aniqlash va tahlil qilish orqali klassifikatsiyalash. Tipik xatolarning manbalari va sabablari. Tipik xatolarning oldini olish omillari. Tipik xatolarning oldini olishda xato qilishga moyillik muhitini yaratish bilan bartaraf etish bosqichlari va metodikasi. Grafik ishlarning sifatli bajarilishini kafolatlovchi metodik tavsiyalar.

O'quvchilarining texnik ijodkorligi va ijodiy fazilatlarini shakllantirish, grafik faoliyatini rivojlantirish metodologiyasi. O'quvchilarda konstruksiyalash va modellashtirish haqidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. Chizmachilikdan ijodiy masalalarni tuzish.

Shaxsiy ta'sir, o'qituvchi obro'si, pedagogik mahorat, pedagogik xushmuomalalik va pedagogik texnika tushunchalari. Chizmachilik o'qituvchisi. Uning shaxsiy va kasbiy sifatleri. Ikki xil chizmachilik o'qituvchisi: gumanist-o'qituvchi va ma'lumot etkazuvchi (nazoratchi) o'qituvchilar faoliyatining tahlili. Ta'lim jarayoniga texnokratik yondashuv: a) o'qituvchi tomonidan, b) o'quvchi tomonidan.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Umumta'lim va kasb-hunar maktablarining chizmachilik fan dasturlari, darsligi, standartlar va qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishish.

«Qiziqarli chizmachilik», «Chizmachilik darslarida ijodkorlik», «Chizmachilikdan didaktik o'yinlar», «Chizmachilik praktikumi» o'quv qo'llanmalari, topshiriqlar to'plamlari, ko'rgazmali qo'llanmalar va ulardan darsda foydalanish.

2. Sinf doskasida rasm, chizma va eskiz bajarish. Tanlangan mavzu bo'yicha muammoli o'qitish metodlaridan foydalanib va barcha o'qitish vositalari (metodik ta'minot)ni tayyorlagan holda darsning reja-konspekti (bayon)ni tuzish.

Sirt hajmini modellashtirish usullaridan foydalaniladi.

Doskada namoyish qilinadigan plakatlar, maketlar va hakoza'larning eskiz shaklidagi to'liq ishlanmalari va dars senariysi tayyorladi.

3. Loyihalangan rejaga asosan maktabda chizmachilik darsi (yoki uning bir qismi)ni o'tish (modellashtirish). Ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash.

Ta'limning ijodiy metodlaridan foydalanishadi.

Tayyorlangan qo'llanmani himoya qilish paytida talaba uning didaktik ahamiyati va estetik sifatini tahlil kilib beradi.

4. Chizmachilikdan dasturlashtirilgan dars o'tishni loyihalash.

Chizmachilik darslarida ijodiy masalalardan foydalanish.

O'quvchilar bilimini baholash (reyting nazoratlari) uchun kartochka topshiriqlar tuzish. Dasturlashtirilgan dars loyihasini tayyorlash (tanlangan mavzu bo'yicha).

Ijodiy masalalarning turlari va ularni tuzishga qo'yiladigan talablar; ijodiy jarayon, ijodiy masalalarni tahlil qilish va echish bosqichlari. Tanlangan mavzu bo'yicha ijodiy masala tuzish.

5. Chizmachilikdan fakul'tativ mashg'ulot turlari va ularni tashkil qilish. Chizmachilikdan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish.

Mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olib, dizayn, badiiy loyihalash, badiiy-bezak san'ati (xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha), xalq amaliy bezak san'ati, qurilish chizmalari va me'morchilik asoslari, yo'nalish bo'yicha fakul'tativ mashg'ulotlar. Mashg'ulotlar uchun ishchi rejalar tuzish.

Tematik kechalar, sayohatlar, to'garaklar, olimpiadalar, tanlov va viktorinalar, ko'rgazmalar uyushtirish.

6. O'quvchilarni aksonometrik proyeksiya, texnik rasm bajarish va o'lcham qo'yishga o'rgatish metodikasi.

Aksonometriyani o'rganishning ahamiyat. Aksonometrik proyeksiyaning turlarini o'rgatish. Aksonometrik proyeksiya mavzusini o'rgatishda ularni namoyish qiluvchi ko'rgazmalardan foydalanish. Texnik rasm va uni bajarish, hajmni ifodalash usullari. O'lcham qo'yishga o'rgatish.

7. O'quvchilarda kesim va qirqimlar bo'yicha bilimlarni mustahkamlash usullari.

Kesim va qirqim mavzularini o'qitishni, egallangan bilimlarni mustahkamlashga o'rgatish.

8. Mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish.

Detal, birikmalar, yig'ma birliklar, yig'ish chizmalari va ularning chizmalari.

9. Chizmalarni bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar. Tipik xatolar tahlili. Yarim yillik illyustativ mavzuli reja tuzish.

Umumta'lim maktablari yoki kasb-hunar maktablarining dasturi va darsligiga asosan illyustativ mavzuli reja tuziladi.

10. Chizmachilik kabinetini jihozlash loyihasini tuzish (eskiz shaklida).

Chizmachilikdan dars o'tishni mashq qilish (yoki darsning bir qismi).

Dars fragmenti guruhda o'tiladi va talabalar bilan birgalikda tahlil qilinadi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Umumta'lim va kasb-hunar maktablarining chizmachilik fani dasturi, darsligi, standartlari va qo'shimcha adabiyotlari bilan tanishish.

2. Yarim yillik illyustativ - mavzuli reja tuzish.

3. Tanlangan mavzu bo'yicha muammoli o'qitish metodlaridan foydalanib dars bayonini tuzish.

4. Chizmachilik darslarida ijodiy izlanish talab qiladigan masalalar tuzish.

5. Chizmachilikdan fakultativ mashg'ulot turlari va ularni tashkil qilish formalari.
6. Chizmachilik kabinetini jihozlash.
7. O'qitishning zamonaviy metodlari.
8. O'qitish vositalari va ko'rgazmali qurollar.
9. Tanlangan mavzuga oid plakat va model yasash.
10. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar.
11. Chizmalarni bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar.
12. Model va plakatlardan foydalanish metodikasi.
13. O'qituvchining darsga tayyorgarligi va unga qo'yiladigan talablar
14. O'qituvchi va o'quvchi ish o'rnini tashkil qilish.
15. Umumta'lim maktablarida chizmachilikni chuqurlashtirib o'rgatish.
16. Chizmachilikdan to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish.
17. Chizmalarni taxt qilish qoidalari va geometrik yasashlarni o'rgatish.
18. Proyeksiyalash asoslari va to'g'ri burchakli proyeksiyalar mavzularini o'rgatish.
19. 8- sinfda chizmachilikdan tanishtirish darsini tashkil qilish.
20. O'quvchilarni chizma standartlari bilan tanishtirish va chizmani taxt qilishga o'rgatish.
21. Sirkul va lekalo egri chiziqlarini bajarishga o'rgatish usullari.
22. To'g'ri burchakli proyeksiyalar metodini o'rgatish;
23. O'quvchilarni aksonometrik proyeksiyalar va texnik rasm bajarishga o'rgatish metodikasi.
24. Chizmalarga o'lcham qo'yishga o'rgatish metodikasi. O'lcham qo'yishda detalni tayyorlashning texnologik jarayonini hisobga olish.
25. O'quvchilarni kesim va qirqim bajarishga o'rgatish.
26. Detal chizmalarini o'qishga o'rgatish metodikasi.
27. Detal chizmasini o'qishga o'rgatish: model va detallardan foydalanish. Buyum tarkibining geometrik tahlili va chizma bo'yicha modellashtirish.
28. Qurilish chizmalarini o'qishga o'rgatish metodikasi. .
29. Avtomatlashtirilgan o'qitish dasturlari.
30. Kompyuter texnologiyalaridan chizmachilik darslarida foydalanish metodikasi.

V. Majburiy grafik ishlarning mazmuni

1. Yarim yillik mavzuli va tasvirli reja tuzish.
2. Berilgan mavzu bo'yicha darsning ilmiy va uslubiy ishlanmasini (dars konspektini) ishlab chiqish.
3. Shu darsga oid ko'rgazmali plakatlar, tarqatma-kartochka materiallari, modellar, slaydlar tayyorlash, texnika va qurilish (ishlab chiqarish) sohalarida mavzuga mos tabiiy buyumlarni tanlash.
4. Berilgan mavzu bo'yicha darsning bayonini tuzish.
5. Dars prezentatsiyasini tayyorlash.

VI. Kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

«Umumta'lim va kasb-hunar maktablarida chizmachilik fanlarini o'qitish metodikasi» fani bo'yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda tanlagan mavzusi bo'yicha adabiyotlarni, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo'llay olishdan iborat. Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablari va professional ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonga bog'liq holda ishlab chiqiladi va har bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi.

Shuning uchun ham o'qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirish uchun o'kuv rejasida ajratilgan 4 soat ichida kurs ishining mohiyati, tadqiqot olib borish usullari va adabiyotlar bilan ishlash, ya'ni ularda masalaning qo'yilishi, nima ish qilinganligi, ularning mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

- talabada tanlangan mavzu bo'yicha o'z nazariy bilimini chuqurlashtirishi;
- psixologik-pedagogik, metodik va o'quv materiallarini tahlil qilish malakasini o'zlashtirishi;
- pedagogik eksperimentni rejalashtirishi, tayyorlashi va o'tkazishi;
- eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi;
- nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egalashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarining ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo'lg'usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o'quv yilining boshida shu o'quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o'zini qiziqtirgan mavzuni tanlab olgandan so'ng, bu mavzu bo'yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun kafedraga taqdim etadi. Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so'ng kafedra unga ilmiy rahbar tayinlaydi. Endi talaba kurs ishini o'z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajara boshlaydi. Kurs ishi A-4 (210-297) format qog'ozida bajariladi. Matn joylari tushunarli, aniq yozilishi, agar imkoniyati bo'lsa, yozuv mashinkasida bosilishi yoki kompyuterda terilishi lozim. Bajarilgan chizmalar davlat standarti talabalariga to'la javob berishi va ular varaqlarda oqilona joylashtirilgan bo'lishi shart.

Kurs ishi risola shaklida bo'lib, unda sarvaraq, mundarija, matn, adabiyotlar ro'yxati va ilova o'rin oladi.

Kurs ishining taxminiy mavzulari:

	<p>1. Chizmachilik darslarida ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari.</p> <p>2. Chizmachilik darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish.</p> <p>3. Umumta'lim va kasb-hunar maktablarida chizmachilik fanidan to'garak ishlarini tashkil etish metodikasi.</p> <p>4. «Yig'ish chizmasini bajarish» mavzusini o'qitish metodikasi.</p> <p>5. «Tutashma» mavzusini o'qitish metodikasi.</p> <p>6. Kesim va qirqim bajarishda yo'l qo'yiladigan tipik xatolar va ularning oldini olish omillari.</p> <p>7. Aylanani teng bo'laklarga bo'lish mavzusini o'qitish metodikasi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan sifatida chizmachilikni o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari, o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari, tasviriyl san'at va chizmachilik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriyl san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda chizma geometriya, chizmachilik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarning nazariyl asoslariga tayangan holda ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, o'qitish metodlari haqida tasavvurga ega bo'lgan holda ta'limni tizimli ravishda tashkil etish va darslarni loyihalash va modellash, o'quvchilarning grafik tayyorgarligini oshirishning turli nazariyl asoslari va fanning asosiy mavzulari bo'yicha dars o'tish metodikasi va zamonaviyl ta'lim usullaridan foydalanish to'g'risida bilimga ega bo'lishi (bilim); - talabaning kelgusi pedagogik faoliyatida muqarrar bo'lgan o'zgarishlarga qiyinchiliksiz moslashish va mustaqil bilim olish, turli adabiyotlardan foydalana bilish, kalendar-mavzuiyl reja, dars konspekti, ko'rgazmali qurollar (plakat, model, maket, kartochka-topshiriqlar, ijodiy xarakterdagi vazifalar)ni tayyorlay olish va ta'lim jarayonini tashkil qila bilishi, ko'nikma hosil qilishi (ko'nikma); - chizmachilik ta'lim jarayonini loyihalash va rejalashtirish, uning natijalarini tahlil qilish va baholash, talaba chizmachilik fanini o'qitish nazariyasi va metodikasidan foydalanib chizmachilik darslarini to'g'ri tashkil qilish va samarali o'qitish to'g'risida aniq malakalarga ega bo'lishi lozim (malaka).
4.	<p style="text-align: center;">VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol; • keys-stadilar; • amaliyl mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariyl va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini</p>

	to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. E.Ro'ziyev Chizmachilik o'qitish metodikasi "O'qituvchi nashriyoti" 1967 Toshkent 2. N.X. Gulomova Chizmachilik "Fan va texnologiya" 2019, 328 b T. 3. I.Rahmanov, Sh.Abdurahmanov. Chizmachilik ma'lumotnoma 4. Sh.Abdurahmanov. Chizma geometriya. Aloqachi nashriyoti 2005-yil <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017- yil 16- yanvar, №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b. 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 6. Ashirbayev A. Chizmachilik. – Toshkent.; «Yangi nashr», 2008. 7. Pavlova A.A., Korzinova e.I., Grafika v sredney shkole. – M., 1999. 8. Gerver V.A., Tvorchestvo na urokax chercheniY. – M., 1998. 9. Rahmonov I.T. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar. – T., 1992 10. Raxmonov I.T. Chizmalarni chizish va o'qish. – T., «O'qituvchi». 1992. 11. M.B.Shah, B.C.Rana. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India, 2007, 2009. <p style="text-align: center;">O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING</p> <p style="text-align: center;">FARMONI</p> <ol style="list-style-type: none"> 12. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF - 6108 - son farmoni. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari.</p>

	<p>14. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.</p> <p>15. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p> <p>16. www.ziynet.uz (jamoat axborot ta’lim tarmog‘i)</p> <p>17. www.tdpu.uz</p>
	<p>Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025 yil “___” _____ -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p>
7.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>I.Sh. Suvonqulov– Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san’at va texnologik ta’lim kafedrası professori.</p> <p>I.U. Izbasarov– Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san’at va texnologik ta’lim kafedrası dotsenti.</p>
8.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>I. Suvonqulov – Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san’at va texnologik ta’lim kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi (ichki)</p> <p>E. Muxamadiyev – Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish instituti professori: (tashqi)</p>

Fan dastur Aniq va amaliy fanlar fakultetining 2025-yil 28-fevraldagi 10-f sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan ma’qullangan.

Tuzuvchi:

I.U. Izbasarov

Kafedra mudiri:

A.N. Abdullayev

Fakultet dekani:

A.N. Abdullayev

O‘quv-ishlar bo‘yicha prorektor:

N.H. Musulmonov

Samarqand davlat pedagogika instituti 6011200- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishining Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fanining o'quv dasturiga tashqi

TAQRIZ

Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi pedagogika oliy ta'lim muassasalarining asosiy o'quv fanlaridan biri bo'lib, bo'lajak chizmachilik o'qituvchisining kasbiy fazilatlarini shakllantirish jarayonini yakunlaydi, maktabda o'quvchilarga puxta bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Shuningdek, faol pedagogik va ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan yuksak grafik madaniyat va kasbiy mahoratga ega chizmachilik o'qituvchisini tarbiyalashdan iborat.

Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fanini o'qitishda o'quv materialini eng samarali, usul, vosita va shakllarda taqdim etishda talabalarning metodik dunyoqarashini kengaytirish orqali ularning uslubiy fikrlashini rivojlantirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilishga o'rgatish va ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llarini o'rgatish, tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'rganishga zamonaviy yondashuvlarga ega bo'lgan malakali o'qituvchini hamda pedagogik muammolarni optimal va ijodiy hal qila oladigan jamiyatning faol a'zosini tarbiyalashdan iborat.

Mazkur fan dasturi o'z ichiga fanning kirish qismi, umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fani va uni fan sifatida o'qitishning maqsad va vazifalari, umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik o'qitishning mazmuni, tamoyillari va metodlari, dars mashg'ulotlarini rejalashtirish, o'qituvchining darsga tayyorlanishi, bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hisobga olish tizimi, ko'rgazmali qo'llanmalar, chizmachilik kabinetini jihozlash, umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini chuqurlashtirib o'rganish va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, chizmachilik fani bo'limlarining asosiy mavzularini o'qitish metodikasi, o'quvchilarni chizmalarda kesimlar va qirqimlar bajarishga o'rgatish, mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish metodikasi.

Sxemalar va qurilish chizmalarini o'qishni o'rgatish, grafik va diagrammalarning amaliy qo'llanilishi, chizma bajarishda o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar, sinf doskasida bo'r bilan ishlash, chizmachilik darslarida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qituvchi omili muammosi, chizmachilik o'qituvchisi shaxsi, chizmachilikdan ilmiy-tadqiqot ishlari metodologiyasi kabi mavzularda nazariy ma'lumotlarni qamrab olgan.

Dasturni tuzishda xorij, rus olim va musavvirlarining hamda o'zbek mualliflarining adabiyotlaridan keng foydalangan. Fan dasturi amaliyotda qo'llashga tavsiya qilaman.

Sam DAQI "Landshaft dizayni"
kafedrası professori:



E. Muhammadiyev

Samarqand davlat pedagogika instituti 60111200- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishining Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fanining o'quv dasturiga ichki

TAQRIZ

Fan sifatida chizmachilikni o'qitish metodikasining predmeti va vazifalari, o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari, tasviriy san'at va chizmachilik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda chizma geometriya, chizmachilik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlarning nazariy asoslariga tayangan holda ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olib, o'qitish metodlari haqida tasavvurga ega bo'lgan holda ta'limni tizimli ravishda tashkil etish va darslarni loyihalash va modellash, o'quvchilarning grafik tayyorgarligini oshirishning turli nazariy asoslari va fanning asosiy mavzulari bo'yicha dars o'tish metodikasi va zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanish to'g'risida bilimga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Talabani kelgusi pedagogik faoliyatida muqarrar bo'lgan o'zgarishlarga qiyinchiliksiz moslashish va mustaqil bilim olish, turli adabiyotlardan foydalana bilish, kalendar-mavzuiy reja, dars konspekti, ko'rgazmali qurollar (plakat, model, maket, kartochka-topshiriqlar, ijodiy xarakterdagi vazifalar)ni tayyorlay olish va ta'lim jarayonini tashkil qila bilishi, ko'nikma hosil qilishi.

Mazkur fan dasturi o'z ichiga fanning kirish qismi, umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik fanini o'qitish metodikasi fani va uni fan sifatida o'qitishning maqsad va vazifalari, umumta'lim maktablari va professional ta'limda chizmachilik o'qitishning mazmuni, tamoyillari va metodlari, dars mashg'ulotlarini rejalashtirish, o'qituvchining darsga tayyorlanishi, bilimlar va amaliy ko'nikmalarni hisobga olish tizimi, ko'rgazmali qo'llanmalar, chizmachilik kabinetini jihozlash, umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini chuqurlashtirib o'rganish va sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, chizmachilik fani bo'limlarining asosiy mavzularini o'qitish metodikasi, o'quvchilarni chizmalarda kesimlar va qirqimlar bajarishga o'rgatish, mashinasozlik chizmalarini o'qish va bajarishga o'rgatish metodikasiga doir mavzular kiritilgan.

Dasturni tuzishda xorij, rus olim va musavvirlarining hamda o'zbek mualliflarining adabiyotlaridan keng foydalangan. Fan dasturi amaliyotda qo'llashga tavsiya qilaman.

**SamDU O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti "Tasviriy san'at
va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti**



I.Suvonqulov

